
Qo'mita raisining xotin-qizlar faollari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi

Bugun Rishton tumani Madaniyat markazining majlislar zalida Rishton va Oltiariq tumanlaridagi mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari- Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Mahkamova Zulayho, O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi huquqbuzarliklarni oldini olish Bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari polkovnik Abdullaeva Umida va Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari-Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komila Kavlanovalar ishtirokida istiqboldagi vazifa va topshiriqlar yuzasidan uchrashuv bo'lib o'tdi.Uchrashuvda qo'mita raisi Zulayho Baxriddinovna tomonidan hozirgi kunda xotin-qizlar faollari ish boshlaganlariga bir oy bo'lgani va shu bir oy ichida amalga oshirilgan ishlar tahlili yuzasidan so'z yuritib, oldinda bajarilishi lozim bo'lgan mas'uliyatli vazifalar borligi hamda bugungi kunda oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani tanqid qilindi.Zulayho Bahriddinovna o'z so'zida davom etarkan, arziyas sabablar tufayli yosh oilalarning ajralishlarini oldini olish maqsadida barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishlari, bunda keng jamoatchilik va mahallalarda faoliyat olib borayotgan "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash" komissiyalari faoliyatini jonlantirish shuningdek, xozirda tumanda tashkil etilgan "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash maskani" va barcha zarur choralarni ko'rish yuzasidan so'z yuritdi.Shundan so'ng, Abdullaeva Umida tomonidan bugungi kunda xotin-qizlar masalasida ichki ishlar bo'limlarida xodimlar faoliyat olib borayotgani, shu sababli ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish yuzasidan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yuzasidan so'z yuritdi.Tadbirda so'z olgan Komila Anvarovna mutasaddilar tomonidan bildirilgan taklif va topshiriqlar ijrosi so'zsiz bajarilishi va kelgusida Farg'ona tajribasi asosida barcha yo'nalishlarda ulkan natijalarga erishishlarini bildirdi.

2022-06-08 15:18:35